

## Texnikumlarda Bitiruvchilarni Kasbiy Yo'nalishi Bo'yicha Ishga Joylashtirish Loyihalarini Amalga Oshirish

*Sharipova Feruza Mirazamovna*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ta'lim tizimini qayta isloh qilish chora tadbirlari ko'rilishi bilan bir qatorda oliy ta'lim va texnikum bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha ham chora tadbirlar ko'rish zarur bo'lib qolmoqda. Maqolamizda texnikum bitiruvchilarini ishga joylashtirish loyihalarini keltirib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** kadrlar tayyorgarlash milliy dasturi, o'quv uslubiy jarayonlar, xalqaro shartnomalar, biznes tashkilotlari, subsidiyalar, grantlar.

Kasb-hunar texnikum (kollej) lari o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurti. O'zbekiston Respublikasida 1997-yil 29-avgustda kabul qilingan „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ va „Ta'lim to'g'risida“gi qonunga muvofiq, umumiy ta'lim maktablari (9-sinf)ni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi hamda iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasi, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy printsiplari sifatida alohida ko'rsatib o'tilgan. Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 18 martdagi 07/02-1-6-sonli topshirig'i asosida Toshkent axborot texnologiyalari universitetida "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash bo'limi" tashkil etildi.[1,2,3]

Bu tizimdan ko'zlangan asosiy maqsad – avvalo, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini takomillashtirish, uzluksiz ta'limning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi amalda faoliyat ko'rsatadi. ta'lim-tarbiya, o'quv-uslubiy jarayonlari adabiyotlar axborot ta'minoti sifatini oshirish hamda pedagog kadrlar bilan ta'minlanishi va ularning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan. Bunda universitet o'z oldiga o'quv fanlarini mutaxassisligi va malakasiga xos o'qituvchilar bilan ta'minlash, o'quv adabiyotlari hamda kafedralarning o'quv uslubiy ishlanmalaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida foydalanish uchun imkoniyatlarni yaratish, hamkorlikda o'quv adabiyoti, uslubiy qo'llanmalar, pedagogik texnologiyalar yaratish hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga oliy ta'lim muassasalar professor-o'qituvchilarining salohiyatini jalb etish kabi vazifalarni belgilagan.[1]

Texnikum bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashda eng avvalo mehnat bozorida holatni aniqlash lozim. Mahalliy va mintaqaviy mehnat bozori talabini o'rganish. O'quvchilarning o'rganayotgan kasblari bo'yicha ish o'rinlarini aniqlash ularni ish bilan ta'minlashdagi muhim vazifalardan biridir. Buning uchun Statistik ma'lumotlar to'plash, soha vakillari bilan suhbatlar o'tkazish, kompaniyalar va sanoat sohalari bilan hamkorlik o'rnatish kerak bo'ladi.[4]

Bo'sh ishr o'rinlarini aniqlashda bizga turli saytlar, elonlar, statistic tahlillar yordam beradi. Keying qadam esa ish beruvchilar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish. Bu bosqichda vazifamiz Mahalliy va xalqaro ish beruvchilar bilan shartnomalar tuzish, talab qilingan kasblar bo'yicha ish joylari ajratishdir. Oldimizga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun Biznes va sanoat tashkilotlari bilan doimiy aloqada bo'lish, ta'lim muassasalari va kompaniyalar o'rtasida "ta'lim-ish" ko'prigini yaratish chora tadbirlarini yaratish.

Sohada yetakchi mutahasislarni tayyorlashda amaliyotning o'rni katta. Shu boisdan talab yuqori bo'lgan kadrlarni yetishtirish va ularni ish o'rinlari bilan ta'minlay olish uchun amaliyotni kuchaytirish

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistratura talabasi



lozim. Bu borada texnikumlarning vazifasi bitiruvchilarning real ish sharoitida tajriba orttirishlarini ta'minlash. O'quv jarayoniga amaliyotlar va stajirovkalar kiritish, ish beruvchilarni talab etilgan kasblar bo'yicha o'quvchilarga imkoniyat yaratishga jalb qilish kabi choralarni amalga oshirish lozim.

Ko'pchilik o'quvchilar kelajak kasblarini oldindan ko'ra olishmaydi. Ularga hohish va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kelajak kasblarini tanlashda tashqi tomondan yordam berish kerak bo'ladi. Bu borada muammolarni hal qilish uchun Karyera markazlarini ochish, ishga joylashish bo'yicha maslahatlar, suhbatlar va treninglar o'tkazish kerak.

Ishga joylashishga qadar bo'lgan bosqichlardagi muammolarni hal qilib bo'lganimizdan so'ng ishga joylashish dasturlarini joriy etish bosqichiga yetib kelamiz. Bu bosqichdagi vazifamiz kasb-hunar texnikumlari bitiruvchilarini tizimli ravishda ishga joylashtirish uchun maxsus dasturlar yaratish. O'quvchilarni maqsadli ish joylariga yo'naltirish, davlat yoki xususiy sektorda grantlar yoki subsidiya dasturlaridan foydalanishimiz lozim. Texnikumlarda har doim ham ish beruvchi talabiga mos ravishda ta'lim berilmaydi. Nazariy jihatdan o'qiganlarimiz amaliy jihatdan qayta o'rganishga to'g'ri kelib qoladi. Kasb-hunar texnikumlari o'quv dasturlarini ish beruvchilarning talablariga moslashtirish bo'yicha ham ishlar olib boorish lozim. Ish beruvchilar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazish, o'quv dasturlarini soha talablariga muvofiqashtirish orqali talablarga javob beruvchi kadrlarni tayyorlab berish mumkin.

Tashqi grantlar va subsidiya dasturlarini joriy etish orqali ularni moliyaviy rag'batlantirish mumkin. Bundan maqsad Bitiruvchilarni ishga joylashishda yordam berish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini yaratish. Davlat va xususiy sektor grantlari, subsidiya dasturlari orqali yangi ish o'rinlarini yaratishimiz mumkin.

Xalqaro tajriba va amaliyotlar o'rganish orqali ham yuqori talabdagi kadrlarni ishlab chiqish mumkin. Ishga joylashishda eng muhim jihat bu o'z sohasining mutahasisi bo'lishdir. Shunda siz ish joyingizga qadrlar kadr bo'lasiz. Xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, bitiruvchilarni chet elda amaliyot va ish tajribasi orttirishga yo'naltirishimiz mumkin.

Bitiruvchilarni kuzatib borish va tahlil qilish texnikumlarda muhim vazifalaridandir. Bitiruvchilarni ishga joylashganidan keyin ularni tahlil qilish va qo'llab-quvvatlash, ish joyiga ko'nikma hosil bo'lguniga qadar aloqada bo'lish maqsadga muvofiq. O'qishni tugatganlardan so'ng, ishga joylashish holati va mehnat bozoridagi muvaffaqiyatlarini kuzatib borish, ishga joylashishda muammolarga duch kelayotgan o'quvchilarga kerak bo'lsa, qo'shimcha malaka oshirish kurslarini taklif qilish kerak.

Bu chora-tadbirlar bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi, mehnat bozorida ularning talabga javob beradigan malakali mutaxassislar sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shuningdek, texnikumlar va ish beruvchilar o'rtasida samarali hamkorlikni yaratish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://tuit.uz/akademik-litsey-va-kasb-hunar-kollejlari-bilan-ishlash-bolimi>
2. <https://lex.uz/acts/-1387345>
3. Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar uchun <https://kun.uz/news/2020/08/21/kasb-hunar-maktablari-kollejlari-va-texnikumlar-uchun-namunaviy-ustavlar-tasdiqlandi?q=%2Fnews%2F2020%2F08%2F21%2Fkasb-hunar-maktablari-kollejlari-va-texnikumlar-uchun-namunaviy-ustavlar-tasdiqlandi#>
4. Bo'sh ish o'rinlari <https://samstat.uz/uz/haqida/bo-sh-ish-o-rinlari>

